

Topshiriqlar:

1. Quyidagi olimlarning botanikaga qo`shgan xissasi haqida mustaqil izlanish olib boring: Aristotel, Teofrast, Karl Linney, Guker, Engler, Taxtadjyan. Har bir olim haqida quyidagilarni yozing:

- Yashagan davri
- Rasmi
- Asosiy asarlari
- O`simliklar tasnifotiga qo`shgan hissasi

Ma`lumotlaringizni qisqa prezentatsiya ko`rinishida namoyon qiling. **(Botanika, tarix va kompyuter texnologiyalari fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**

2. "Tasniflash – tafakkurning boshlanishi" nomli esse tayyorlang. Ushbu esseda odamlarda nima uchun o`simliklarni klassifikatsiya qilishga ehtiyoj tug`ildi savolini ochib bering. Shuningdek, quyidagilarga javob bering:

- Sistematikani falsafiy jihatdan qanday tushunish mumkin?
- O`simliklar olami tartibsiz bo`lsa, biz qanday muammoga duch kelamiz?
- Ilmiy tasnif va hayotiy tartib o`rtasidagi aloqani tushuntiring.



3. Quyidagi o`simliklar (mox, lavanda, bug`doy, atirgul) nomlarini 4 tilda yozing: o`zbekcha, inglizcha, ruscha, lotincha. Har birining sinonimlari yoki xalq orasida ishlatiladigan nomlarini aniqlang. Jadvalga solishtirib yozing. Rasmlarini ham ushbu jadvalga joylashtiring. **(Botanika, terminologiya va rus, ingliz tili fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**

4. Quyidagi masalalarni ishlang. **(Botanika va matematika fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**

✍ Masala: Bir tup paporotnik har 3 haftada yana bitta yangi o‘simlik hosil qiladi. Agar boshlang‘ichda 1 ta paporotnik bo‘lsa, 15 hafta ichida jami nechta paporotnik bo‘ladi?

✍ Masala: Dastlab 1 m² joyda o‘sgan moxlar har oyda o‘z maydonini 2 baravar oshiradi. 4 oyda ular nechta m² maydonni egallaydi?

✍ Masala: Gulli o‘simliklarning 3 xil barg shakli (yumaloq, o‘tkir, cho‘zinchoq) va 4 xil gul rangi (qizil, oq, sariq, binafsha) mavjud. Barg va rang birikmalarining jami necha kombinatsiyasi bor?

✍ Masala: Quyidagi diagrammadagi ma’lumotga qarab tahlil qiling:

O‘simlik guruhi	Turlar soni
Moxlar	20
Suv o‘tlari	15
Paporotniksimonlar	30
Ochik urug‘lilar	25
Gulli o‘simliklar	60

Savol:

- Tuban o‘simliklar (mox, suv o‘ti) jami necha foizni tashkil qiladi?
- Yuksak o‘simliklar necha foizni egallaydi?